



MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR HUQUQIY HOLATINI BELGILOVCHI NORMALARNING EKOLOGIYA HUQUQI TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

Jamoat xavfsizligi universiteti

Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrası

*o'qituvchisi **Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini belgilashning dastlabki asosiy yo'nalishlaridan biri atrof tabiiy muhitni asl holicha saqlashni tartibga solishga qaratiladi. Buni O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunida ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida ko'rsatilishicha, tabiatni muhofaza qilish obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan, nooqilona foydalanishdan muhofaza etilishi lozim¹.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, eko harakat, akvatoriyalar, suv fondi, atmosfera, BIOSfera, litosfera

Egalikdagi va foydalanishdagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer(uchastka)larining chegara belgilari hamda cheklov belgilari muhofaza qilish va ulardan foydalanish uchastkalarining chegaralarini aniqlash maqsadida o'rnatiladi, ularni yo'q qilish yoki shikastlantirish yoxud ataylab o'rni o'zgartirilishi esa nizolarga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham, mazkur moddada bu chegara va

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ахборотномаси. 1993, 1-сон, 38-модда



cheklovlarni yo'k qilganlik yoki shikastlantirganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 77-moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish koidalarni buzish, ya'ni tegishli ruxsat olmay turib imorat solish, yogochni ishlash, omborlar va boshqa inshootlar qurish maqsadida daraxtni kundakov qilish, pichanzorlar va yaylovlarni shikastlantirish o'zboshimchalik bilan pichan o'rish va mol boqish, drenaj tizimlarini va yo'llarni yo'k qilish yoki shikastlantirganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. YA'ni, mazkur moddada o'rnatilishicha, tegishli ruxsat olmay turib, imorat solish, yog'ochni qayta ishlash, omborlar va boshqa inshootlar qurish maqsadida daraxtni kundakov qilish, daraxt ildizlarini qazib olish, pichanzorlar va yaylovlarni shikastlantirish, o'zboshimchalik bilan pichan o'rish va mol boqish, drenaj tizimlarini va yo'llarni yo'k qilish yoki shikastlantirish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi².

O'rmon fondi yerlarida chorva mollarini o'tlatish qoidalarini buzish, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror

² Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. –Т.: Адолат, 2019



sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi³.

Bu huquqbuzarliklarning subyektlari fuqarolar va mansabdor shaxslar bo'lishi mumkin. Ushbu moddada ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklar qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida qilingan harakatlar bilan sodir etilishi mumkin. Mazkur moddaning ikkinchi qismi xuddi shunday huquqbuzarliklarni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutadi. Mazkur 77-moddada ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar tabiatni muhofaza qilish organlari mansabdor shaxslari tomonidan ko'rib chiqiladi (261-modda).

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 82-moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarlar tartibini buzish huquqbuzarligi uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, davlat qo'riqxonasi tartibini buzgan davlat milliy tabiat bog'lari, buyurtma qo'riqxonalari, tabiat yodgorliklari, suvni muhofaza qilish zona(tegra)lari, kurort tabiiy hududlari, botanika bog'lari, dendrologiya va hayvonot bog'lari, qo'riqlanma (oraliq) tegralari, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, baliq xo'jaligi tegralari va muhofaza etiladigan o'zga hududlar tartibini buzgan fuqarolarga va mansabdor shaxslarga nisbatan jarima solinishi belgilangan. Unga ko'ra, davlat qo'riqxonasi tartibini buzish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi⁴.

³ Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. –Т.: Адолат, 2019

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. –Т.: Адолат, 2019



Majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalari, tabiat bog‘lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar hamda majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar shu jumladan suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo‘ljallangan hududlar, davlat biosfera rezervatlari hamda davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini buzish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, o‘n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, o‘ttiz baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi⁵.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasida belgilab berilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ularning zid keladigan har qanday xo‘jalik, rekreatsion va boshqa faoliyat olib borish taqiqlanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularning muhofaza etiladigan tegralari hududida iqlimlashtirish maqsadi bilan o‘simliklar va hayvonlarning turlari hamda kichik turlarini joylashtirish ta‘qiqlanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ularga qarashli bo‘lgan organlarning xodimlaridan tashqari, fuqarolarning bo‘lishiga bu organlar ma‘muriyatining ruxsati bo‘lgan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi. Tabiat bog‘lari, davlat tabiat yodgorliklari, suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo‘yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo‘lish zonalari, kurort tabiiy hududlar, tabiiy pitomniklar,

⁵ Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. –Т.: Адолат, 2019



balıq xo‘jaligi zonalari va ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo‘ljallangan hududlar holati “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunning 23-34 va 36-37 hamda 40-43-moddalarida belgilab berilgan. Suvni muhofaza qilish tegralari, bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 apreldagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek ichimlik suvi va maishiy suv ta‘minotining davolash va madaniy sog‘lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonalari haqidagi Nizom”da⁶ ham belgilab berilgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning bu tartibi hayvonot hamda o‘simliklarning nodir va yo‘qolib borayotgan turlarini, tabiiy majmualarini, noyob manzaralarni, aholining dam olish hamda salomatligi uchun suvlarni va hokazolarni muhofaza qilish uchun shart-sharoitlarni saqlab qolish maqsadida, xo‘jalik va o‘zga faoliyatning ayrim turlarini cheklash yoki taqiqlash bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 82-moddasi alohida kismida ko‘rsatib o‘tilgan huquqbuzarliklarning obyekti muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni belgilangan holati hisoblanadi. Mazkur moddada nazarda tutilgan huquqbuzarliklarning subyekti fukarolar yoki mansabdor shaxslar bo‘lishi mumkin. Bu huquqbuzarliklar qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan qilingan harakatlar yoki harakatsizliklar natijasida sodir etilishi mumkin. Ushbu moddaning uchinchi qismi bu huquqbuzarlikning ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashning muhim yo‘nalishlaridan biri ushbu hududlarni chiqindilar bilan ifloslanishdan muhofaza

⁶ Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами.- 1992. 4-сон. Б. 33-52



qilishning alohida tartibini oʻrnatish hisoblanadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonunining 45-moddasida chiqindilarni tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan va tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlarda, suvni muhofaza qilish zonalari va suv obyektlarining sanitariya, muhofaza zonalari doirasida, shuningdek, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda obyektlarga tahdid kelib chiqishi mumkin boʻlgan boshqa joylarda saqlash va koʻmib tashlash taʼqiqlanadi⁷. Demak, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda chiqindilar bilan muomala qilishning alohida tartibi belgilangan, ushbu tartib ularni himoya qilishning alohida tartibini oʻrnatadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashdagi muhim jihatlardan biri ushbu huquqiy holatni buzganlik uchun yuridik javobgarlik choralarining oʻrnatilganligidir. Chunonchi, Oʻzbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonunida muhofaza qilinadigan hududlar va obyektlarning huquqiy tartibotini buzganlikda aybdor boʻlgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar (47-modda). Shuningdek, korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlarning muhofaza qilinadigan hududlarga zararli taʼsir etgan yoki bunday taʼsir etish xavfi tugʻilgan taqdirda ularning faoliyati cheklanishi, toʻxtatib qoʻyilishi, zararli taʼsirni bartaraf etishning imkoni boʻlmasa tugatilishi mumkinligi belgilangan (48-modda).

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining umumiy yoʻnalishi va talablarini Oʻzbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”⁸gi Qonuni normalari belgilab beradi. Qonunda, avvalo, ushbu xududlarning davlat mulki ekanligi oʻrnatilgan (6-modda). Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari va akvatoriya uchastkalari huquqiy holatidagi

⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ахборотномаси. 1993, 1-сон, 38-модда

⁸ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005, 1-сон, 1-модда



o'ziga xos muhim jihatlardan biri mazkur hududlardan foydalanishning belgilangan maqsadiga zid har qanday faoliyat ta'qiqlanadi. Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyatni cheklash yoki ta'qiqlash uchun yer uchastkalarini saqlash vazifasi belgilanadi (7-modda). Bundan tashqari, ushbu qonunda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning barcha toifalari alohida-alohida huquqiy tartibga solinib, ularning yerlari huquqiy holati belgilangan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi⁹dagi bir qator huquqiy normalar muhim o'rinni egallaydi. Ushbu huquqiy normalarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar har bir tarkibining huquqiy rejimi alohida tartibda belgilangan. Chunonchi, Yer kodeksining 72-moddasida ko'rsatilishicha, tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, ayrim tabiiy obyektlar hamda majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlarning, muhofaza etiladigan landshaftlarning, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlarning, davlat BIOSfera rezervatlarining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarga tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun berilgan yerlari kiradi. Mazkur yerlarda ularning belgilangan maqsadiga zid bo'lgan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sirning oldini olish maqsadida davlat qo'riqxonalari, buyurtma qo'riqxonalar va davlat tabiat yodgorliklari atrofida ularning rejimiga rioya etilishini ta'minlashga zararli ta'sir

⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1998, 5-6-сон, 82-модда



etadigan xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyat cheklangan yoki taqiqlangan holda muhofaza zonalari tashkil etiladi.

Yer kodeksining 73-moddasida sog‘lomlashtirish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning huquqiy holati o‘rnatilgan bo‘lib, unga binoan sog‘lomlashtirish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar jumlasiga kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga, shifobaxsh hamda sog‘lomlashtirish xossalari ega bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli yuridik shaxslarga foydalanishga berilgan yerlar kiradi. Mazkur yerlarda ularning belgilangan maqsadiga zid bo‘lgan har qanday faoliyat taqiqlanadi¹⁰. Aholining davolanishi va dam olishi uchun zarur sharoitlarni, shuningdek tabiiy shifobaxsh hamda sog‘lomlashtirish xossalari muhofaza qilinishini ta‘minlash maqsadida sog‘lomlashtirish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarda kurort tabiiy hududlarning rejimi belgilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatidagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, davlat qo‘riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalari, tabiat bog‘lari, davlat tabiat yodgorliklari, buyurtma qo‘riqxonalar (ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etilgan buyurtma qo‘riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalaridan soliq undirilmaydi. Ammo, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan bo‘lsa yer solig‘i undiriladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga alohida hollarda yo‘l qo‘yiladi. Qonunga binoan yuridik va jismoniy shaxslar davlat tabiat yodgorliklari, buyurtma qo‘riqxonalar, tabiiy pitomniklarni muhofaza qilish bo‘yicha zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlamagan taqdirda ular egallab turgan yer uchastkasi olib qo‘yilishi mumkin.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1998, 5-6-сон, 82-модда



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatidagi alohida xususiyatlardan biri ushbu tashkilotlar oldida turgan vazifalarni hal etish uchun atrof tabiiy muhitning tabiiy holatiga ma'lum darajada aralashishga ruxsat beriladi. Bunday aralashuvning asosiy maqsadi tabiiy muvozanat buzilishi holatlarining oldini olish borasida tiklovchi va ogohlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llash va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishdan iborat.

Bundan tashqari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda fuqarolarga ekskursiya o'tkazishga ruxsat beriladi. Shu maqsadda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda maxsus hududlar, yo'l va yo'lakchalar, muzeylar barpo etilishi mumkin. Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar faoliyati maqsadiga zid bo'lmagan boshqa ishlar bilan shug'ullanishga ham ruxsat berilishi mumkin.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatidagi asosiy xususiyatlardan biri uning 10 % idan oshmagan ma'lum qismida mutlaq qo'riqxonalar maqomining o'rnatilishidir va unda tabiiy jarayonlarga har qanday aralashuv man etilishidir. Qo'riqxonaning tabiiy holatini to'liq muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida qo'riqxonalar hududi atrofida qo'riqlanma zonalari belgilanadi.

Demak, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini differentsiatsiya qilish imkonini beruvchi samarali mexanizmlardan biri hududni zonalashtirish hisoblanadi. "Zonalashtirish – bu muhofaza etiladigan tabiiy hududni ilmiy-asoslantirgan holda faoliyat ko'rsatish va muhofaza qilishning turli rejimlari amal qiluvchi uchastkalarga bo'lish"¹¹. O.M.Kozir¹² hududni zonalashtirishni

¹¹ Меллума А.Ж. Особо охраняемые природные объекты на староосвоенных территориях. –Рига, 1988. 176 с.

¹² Козыр О.М. Концепция развития законодательства РФ о зонировании территорий //Экологическое право России на рубеже XXI века. Сборник научных статей преподавателей и аспирантов кафедры экологического и земельного права юридического факультета МГУ им. М.В. Ломоносова, посвященный памяти профессора В.В. Петрова. Составители: А.К. Голиченкова, Т.В. Петрова. /Под ред. проф. А.К. Голиченкова. –М.: Зерцало, 2000. 227 с.



yerdan foydalanish bo'yicha cheklashlarni belgilash metodlaridan biri sifatida ko'radi.

Hududlarni zonalashtirish cheklovlarni o'rnatishning bir usuli sifatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishda va ular faoliyatida juda keng qo'llanadi. Bunda quyidagicha zonalar belgilanishi mumkin: qo'riqxonalar zonasi, qo'riqlanma zonalar, suvni muhofaza qilish zonalar, sohilbo'yi mintaqalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo'lish zonalar, sanitariya muhofazasi zonalar, baliq xo'jaligi zonalar, rekreatsiya, xo'jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalar, kurort zonalar, muhofaza etiladigan landshaft zonalar, ilmiy-tajriba zonalar va qonunchilikka muvofiq boshqa zonalar.

Qo'riqlanma zonalar – bu davlat qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar hisoblanadi. Qo'riqlanma zonalarda ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sirning oldini olish uchun xo'jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyat cheklanadi yoki taqiqlanadi. Qo'riqlanma zonalarining o'lchamlari va rejimi, shuningdek yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda belgilanadi.

Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, “qo'riqlanma zonalar – bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda tashkil etiladigan yer, yer qa'ri, suv va havo makoni bo'lib, ular doirasida maxsus rejim o'rnatiladi hamda xo'jalik va boshqa faoliyat muhofaza etiladigan tabiiy hududlar zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida istisno etiladi”¹³.

Qo'riqlanma zonalar tashkil etish masalasi, yuqorida qayd etilganidek, muhofaza etiladigan tabiiy hududni loyihalashtirish bosqichidayoq hal etilishi lozim,



zero, hudud uchastkasini kompleks ekologik tadqiq qilishga oid hujjatlar, majburiy davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladi. Qo'riqlanma zonalar o'lcham va chegaralarini davlat hokimiyat organi tomonidan tasdiqlanishi qo'riqlanma zonalarga shunga muvofiq huquqiy maqom berilishini kafolatlaydi hamda noyob va tipik tabiiy kompleks va obyektlarni, muhim tabiiy tuzilmalarni, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini, ularning irsiy fondini saqlab qolishga qaratilgan vazifalarini samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Davlat qo'riqxonalari, buyurtma qo'riqxonalar va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar qo'riqlanma zonalar hisoblanadi. Qo'riqlanma zonalarda ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sirning oldini olish uchun xo'jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyat cheklanadi yoki ta'qiqlanadi. Qo'riqlanma zonalarning o'lchamlari va rejimi, shuningdek, yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda belgilanadi.

Ushbu hududlarni saqlab qolishni kafolatlovchi huquqiy talablar yer, suv, o'rmon va boshqa tarmoq qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Qo'riqlanma zonalarda yer va suvdan foydalanishda cheklash bilan bir qatorda ov, baliqchilik, o'rmondan foydalanish va tabiiy resurslardan foydalanishning boshqa shakllarini ta'qiqlash yoki cheklashga ham yo'l qo'yilishi mumkin.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashda ushbu hududlar faoliyatini tartibga soluvchi Nizomlar ham muhim o'rinni egallaydi. Chunonchi, Chotqol davlat BIOSfera qo'riqxonasi nizomining 4- va 5-bandlariga muvofiq, qo'riqxona yerlari tabiatni muhofaza qilish ahamiyatidagi yerlar toifasiga mansubdir. Qo'riqxona yerlarida ularning maqsadiga zid keluvchi faoliyat bilan shug'ullanish man etiladi; yer, suv, yer qa'ri, o'simlik va hayvonot dunyosi qo'riqxona himoyasi ostida bo'ladi.



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashdan asosiy maqsad tabiiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish va foydalanish, ularning hozirgi holatini tahlil qilish, ulardagi o'zgarishlarni bashorat qilish va mintaqada tabiiy resurslardan barqaror foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish, tipik va noyob tabiiy komplekslarni va biologik xilma-xillikni o'rganish va saqlab qolish, tabiiy jarayonlar monitoringini yuritish, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishning ilmiy asoslarini joriy etishdan iborat.

REFERENCE:

1. Ўзбекистонда ер ҳуқуқининг назарий муаммолари. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011, 296-бет
2. Ер ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ, 2002. 245-б.
3. Петров В.В. Экологическое право России. Учебник для вузов. –М.: БЕК, 1995. 466 с.
4. Аликиева А.М. Земельное право. Учебное пособие. 3-изд. –Тюмен: ТГУ, 2010. С. 238
5. Гулак Н.В., Бевзюк Е.А. Земельное право. Учебное пособие. –Оренбург: РИУ ГОУ ОГУ, 2005. С. 62
6. Транин А.А. Национальные парки в СССР: проблемы и перспективы (организационно-правовые аспекты). –М.: Наука, 1991. С. 21.
7. Чубуков Г.В. Земельное право России. Учебник. –М.: Издание г-на Тихомирова М.Й., 2002. С. 213
8. Павловский И.А. Земельное право. Конспект лекций. –М.: МИЭМП, 2004.
9. Воробева Л.В. Земельное право: Учебно-метод. пособие. –Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2004. С.26
10. Умаров Д.М. Правовое регулирование охраны заповедников в Республике Узбекистан: Дисс. ... канд. юрид. наук. –Т.: ТГЮИ, 2009. С. 154-155